

JIZZAX VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI

JIZZAX VILOYATINING  
DEMOGRAFIK HOLATI

2024- yil  
*yanvar-sentabr*






## JIZZAX VILOYATINING DOIMIY AHOLISI


*2024- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar*

Jizzax viloyatida 2024- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **1530,3** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **22,9** ming kishiga yoki **101,5 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **718,2** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **46,9 %**), qishloq aholisi soni **812,1** ming kishi (**53,1 %**)ni tashkil etdi.



**Doimiy aholi soni****1530,3***ming  
kishi***Tabiiy o'sish****+24,6***ming  
kishi***Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi****Shahar  
46,9%****Qishloq  
53,1%****Doimiy aholi soni**

### Aholining tabiiy harakati, ming kishi




### Jizzax viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil yanvar-sentabr



## Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi

2024- yil 1- yanvar holatiga



2024- yil 1- yanvar holatiga Jizzax viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **100,5 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **24,2 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **92,9 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **27,4 ming kishini** tashkil etgan.

**Doimiy aholi sonining taqsimlanishi**  
2024- yil 1- oktabr holatiga

**Erkaklar**



**50,5%**

**772,4 ming kishi**

**Ayollar**



**49,5%**

**757,9 ming kishi**

**Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi**

*I- oktabr holatiga, ming kishi*

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1 499,6</b>	<b>1 530,3</b>	<b>102,0</b>
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	194,9	199,0	102,1
Arnasoy	48,5	49,3	101,7
Baxmal	169,7	173,4	102,2
G'allaorol	185,8	189,7	102,1
SH.Rashidov	241,5	247,3	102,4
Do'stlik	69,7	70,7	101,5
Zomin	178,5	182,9	102,4
Zarbdor	94,1	96,0	102,0
Mirzacho'l	55,1	56,1	101,9
Zafarobod	53,4	54,3	101,7
Paxtakor	80,6	82,0	101,8
Forish	98,1	99,5	101,4
Yangiobod	29,7	30,1	101,4

## QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **29,4** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **25,9** promilleni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **2,0** promillega kamaygan (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **27,9** promille bo‘lgan).

Qiz bola:

**14,2 ming kishi**

O‘g‘il bola:

**15,2 ming kishi**



### Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti


2024- yil yanvar-sentabr, kishi

**Ma’lumot uchun!:** tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.


## Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-sentabr, kishi

	2023- yil	2024- yil	O‘sish sur’ati, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>31063</b>	<b>29422</b>	<b>94,7</b>
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	3897	3293	84,5
Arnasoy	841	847	100,7
Baxmal	4036	3805	94,3
G‘allaorol	3970	3977	100,2
SH.Rashidov	5475	5302	96,8
Do‘stlik	1277	1168	91,5
Zomin	3887	3826	98,4
Zarbdor	1954	1882	96,3
Mirzacho‘l	823	822	99,9
Zafarobod	1063	931	87,6
Paxtakor	1629	1470	90,2
Forish	1724	1632	94,7
Yangiobod	487	467	95,9



## Tug‘ilishlar yillar kesimida



## Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-sentabr



2024- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda 1 nafar va egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:

- 1 nafar – **97,8%**
- 2 nafar – **2,2%**

## VAFOT ETGANLAR


2024- yil yanvar-sentabr

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **4,8** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **4,2** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan ko‘rsatkich **0,6** ga o‘limlar soni kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar- sentabr oylarida **4,8** promille bo‘lgan).

## Hududlar kesimida o‘lganlar soni


2024- yil yanvar-sentabr, kishi

	2023- yil	2024- yil	O‘sish sur’ati, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>5302</b>	<b>4781</b>	<b>90,2</b>
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	621	697	112,2
Arnasoy	197	117	59,4
Baxmal	643	568	88,3
G‘allaorol	678	694	102,4
SH.Rashidov	913	707	77,4
Do‘stlik	242	191	78,9
Zomin	596	549	92,1
Zarbdor	307	267	87,0
Mirzacho‘l	144	162	112,5
Zafarobod	242	156	64,5
Paxtakor	272	269	98,9
Forish	316	292	92,4
Yangiobod	131	112	85,5



## O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-sentabr, kishi




2489

On aylanish  
tizimi kasalliklaridan



445

Nafas olish a‘zolari kasalliklaridan



443

O‘simgatlardan



414

Baxtsiz hodisa zaharlanish  
va jarohatlanishlardan



224

Ovqat hazm qilish  
a‘zolari kasalliklaridan




62

Yuqumli va  
parazitar kasalliklardan




704

Boshqa kasalliklardan




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining **52,1** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,2** % i – o'simtalardan, **9,3** % i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **8,7** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,7** % i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **1,3** % i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **14,7** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

## QAYD ETILGAN NIKOHLAR



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **7,5** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,6** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan minus **0,5** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar- sentabr oylarida **7,1** promille bo‘lgan).


### NIKOHDAN AJRALISHLAR



2024- yil yanvar-sentabr oylarida **1,3** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar- sentabr oylarida **1,2** promille bo‘lgan).

**Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi**

2024- yil yanvar-sentabr




2024- yil yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **51,3 %** farzandsiz, **27,8 %** bitta farzand bilan va **20,9 %** ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

## AHOLI MIGRATSİYASI

*(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)*


2024- yil yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyati bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni **5 628** kishini. Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami **7 377** kishini, migratsiya saldosi minus **1749** kishini tashkil etdi. 2023 yilning mos davrida minus **1643** kishi bo‘lgan.

**Jizzax viloyati bo‘yicha ko‘chib kelganlarning taqsimlanishi**

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **5,6** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **4,9** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan minus **0,6** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar- sentabr oylarida **4,3** promille bo‘lgan).

## Jizzax viloyati bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

2024- yil yanvar-sentabr, ( kishi)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **7,4** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **6,5** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,7** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar- sentabr oylarida **5,8** promille bo'lgan).

## Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayrıldi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalikklar, patologik holatlар va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar



organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalari qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalari qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtaсидаги farqning absolyut miqdori.

**Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'limi**

Tel: 72 221-51-19